

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Husnora Ashqulova

**Annotatsiya:** Ushbu maqola so'z birikmalarining tilga mo'ljallangan xususiyatlarini o'rganadi, ularning unikal xususiyatlari va tilning ma'nosi muhimligini tekshiradi. Ushbu birikmalarning tuzilishi, ma'nolari va til ichida ularning foydalanish mexanizmlari o'rganiladi, ularga o'zgartirish va tilshunoslik analizida o'rinn beradi.

**Kalit so'zlar:** so'z birikmalar, unikal xususiyatlar, tilning ma'nosi va tuzilishi, semantikasi, foydalanish mexanizmlari, til, kommunikatsiya, tahlil, zamonaviylik, tabiiy xususiyatlar, tilshunoslik tahlili

### FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS' LINGUISTIC CHARACTERISTICS

**Annotation:** This article explores the linguistic traits inherent in phraseological units, examining their unique characteristics and linguistic significance. It delves into the structure, semantics, and usage patterns of such units within language, shedding light on their role in communication and linguistic analysis.

**Key words:** phraseological units, unique characteristics, meaning and structure of language, semantics, usage patterns, language, communication, analysis, modernity, inherent features, linguistic analysis

### ОСОБЕННОСТИ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

**Аннотация:** Данная статья исследует лингвистические черты, присущие фразеологическим единицам, рассматривая их уникальные характеристики и лингвистическое значение. Оно погружается в структуру, семантику и узоры использования таких единиц в языке, проясняя их роль в коммуникации и лингвистическом анализе.

**Ключевые слова:** фразеологические единицы, уникальные характеристики, значение и структура языка, семантика, модели использования, язык, коммуникация, анализ, современность, врожденные особенности, лингвистический анализ

### KIRISH

Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma'noda har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til , tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan bиргаликда madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi

iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan - tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.<sup>40</sup>

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks etirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi. Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondoshuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus, o'zbek tilshunoslida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etilishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A. Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.<sup>41</sup>

O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o'zbek tilshunoslida lingvomadaniyatshunoslilikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning “O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab”, N.Sayidrahimovaning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovaning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” mavzusida gimonografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslilik fanining mohiyati, predmeti va obyekti masalalari o'rganilgan.

<sup>40</sup> Sh.Rahmatullaev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b.

<sup>41</sup> Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko'rgi, Toshkent, 1970, 5-43-b.

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda quroq hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi"

#### Frazeologik birliklarning ko`p manoliligiga ko`ra ko`ra tasnifi

1. Bir ma'noli frazeologik birliklar Xuddi bir ma'noli so`zlarga o`xshab bir ma'noli frazeologik birliklar ham tarkibidagi so`zlarning ma'nolaridan kelib chiqadigan bitta ma'noga ega bo'ladi. Masalan bir yoqadan bosh chiqarmoq iborasi "hamjihat bo'lmoq" degan bitta ma'noni, yer bilan osmoncha iborasi "juda katta, beqiyos (farq)" degan bitta ma'noni ifodalaydi.

2. Ko`p ma'noli frazeologik birliklar Ko`p ma'noli leksemaga o`xshab polisemantik iboralar ham bir-biriga bog`langan kamida ikkita ma'noga ega bo'ladi. Ko`p manoli iboralar ko`chma ma'nolari ikkitidan beshtagacha borishi mumkin.

Frazeologik birlit yirik til birligi bo'lib kamida ikkita mustaqil turkum leksemasidan (so'zlardan) tarkib topadi. Shunga ko`ra, frazeologik birlikning ifoda plani deb, leksemalar va ularni bog'lash uchun xizmat qiladigan morfemalar ko'zda tutladi. O'zaro sintaktik bog`langan bu leksemalar mohiyatiga ko`ra so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlit (nutq birligi) deb emas, balki semantic birlit (til) birligi deb qarashga olib keladi. Shu sababli so'z birikmasiga yoki gapga tenglik haqida gapirganda, frazeologik birlitning ichki sintaktik qurilishi ko'zda tutiladi, frazeologik birlitning tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo'ladi.<sup>42</sup>

#### Birikma atamalar

To'g'ri ma'noli turg'un iboralarning yana bir turi birikma atamalardir. Iboraarning bu turini birikma atamalar deb nomlanishiga sabab ularning ma'lum darajada termin (istiloh)larga yaqinlidir, sababi birikma atamalar ham terminlar kabi birikma holida bir tushuncha ifodalaydi. Birikma atamalardan kelib chiqadigan umumiyl tushuncha uning tarkibidagi komponentlar ma'nosini bilan bog'liq bo'lib, unda kesim bo'lak tushuncha mohiyatini bildiradi va tobe bo'lak uning nimaga xoslanganligini belgilaydi yoki ma'no mo'ljallangan tushuncha hajmigacha torayib boradi. Masalan, agrar masala, ishlab chiqarish boshqarmasi, «O'zbekiston ovozi»,

<sup>42</sup> U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 1992, 55-126-b.

«Xalq so'zi» kabi iboralarda birikma atamasining ma'no mohiyati hokim bo'lakda bo'lib, tobe bo'laklar esa uning nimaga taalluqli ekanligini ko'rsatib keladi. Birikma atamalar ma'nosi qanday xarakterda bo'lishidan qat'i nazar, nomlovchi – nominativ xususiyatini o'zida saqlaydi, bu uning ma'nosi har ikkala bo'lak ma'nosi sintezidan kelib chiqishini ko'rsatadi.

#### Xulosa

Til madaniyat xazinasi, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, forklor va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. Til - madaniyat tashuvchisi bo'lib, ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Til - madaniyatning quroli, vositasidir. u xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi. Til madaniyatning milliy komponentlari orasida bиринчи о'rinda turadi. Til bиринчи navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo'yuvchi vosita bolishiga yordam beradi

#### REFERENCES:

1. Sh.Rahmatullaev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b.
2. Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko'rki, Toshkent, 1970, 5-43-b.
3. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 1992, 55-126-b.
4. Hozirgi zamon o'zbek tili, Toshkent, 1957, 152-181-b.
5. A.Mamatov. Frazeologizmlarning shakllanish asoslari, Toshkent, 1996, 5-48-b.
6. Ya.Pinjasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 1969, 51-55-b.
7. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 2005, 220-225-b.
8. Sh.Rahmatullaev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, Toshkent